PEDAGOGIKA

UDK 371.38 DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss3/a49

PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUVCHILARNING DARSDAN TASHQARI FAOLIYATINITASHKIL ETISHDA LOYIHA METODIDAN FOYDALANISH

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДА ПРОЕКТОВ ПРИ ОРГАНИЗАЦИЙ ВНЕУРОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

USING THE PROJECT METHOD IN ORGANIZING EXTRACURRICULAR ACTIVITIES OF STUDENTS OF PROFESSIONAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abidova Zarnigor Kamildjanovna[1]

[1]**Abidova Zarnigor Kamildjanovna** – Buxoro muhandislik-texnologiya instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarnning darsdan tashqari faoliyatini mazmunli o'tkazish, fanlar bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarini oshirishda loyiha metodidan foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, statistik va so'rov metodlaridann foydalanilgan. O'quvchilarning darsdan tashqari faoliyatini loyiha metodi asosida tashkil etish bosqichlari va sub'ektlarning vazifalari belgilab berilgan. Sinfdan tashqari ishlarni samarali tashkil etish natijasida bo'lajak mutaxassislarning umummadaniy, umumkasbiy va kasbiy kompetentligini shakllantirish imkoniyatlari ochib berilgan. Loyihaviy faoliyat jarayonida o'quvchilarda universal bilim, malaka va ko'nikmalarning yaxlit tizimi shakllanishi, turli axborot manbaalari bilan mustaqil ishlash ko'nikmalarini egallashlari, mustaqil faoliyat tajribasiga ega bo'lishlari bayon etilgan.

Аннотация

В статье рассмотрены возможности организации метода проектов в профессиональных образовательных учреждениях для содержательной организации внеурочной деятельности и развития знаний, умений и навыков учащихся по изучаемым предметам. Обозначены этапы внеурочной организация метода проектов учащихся и задачи субъектов образовательного процесса. Раскрыты возможности формирования общекультурных, общепрофессиональных и профессиональных компетенций будущих специалистов в результате эффективной организации внеурочных работ. Изложены формирования целостности системы универсальных знаний, умений и навыков учащихся, а также владения навыков самостоятельной работы с различными источниками информации и опыт самостоятельной работы в процессе проектной деятельности.

Abstract

The article considers the possibilities of organizing the method of projects in professional educational institutions for the meaningful organization of extracurricular activities and the development of knowledge, skills and abilities of students in the subjects studied. The stages of extracurricular organization of the students' project method and the tasks of the subjects of the educational process are outlined. The possibilities of the formation of general cultural, general professional and professional competencies of future specialists as a result of the effective organization of extracurricular activities are revealed. The article describes the formation of the integrity of the system of universal knowledge, skills and abilities of students, as well as the possession of skills of independent work with various sources of information and experience of independent work in the process of project activities.

Kalit so'zlar: *o'quvchilarning darsdan tashqari faoliyati, loyiha, loyiha metodi, loyihaviy faoliyat, o'quv vaziyatlar, tarmoq servislari.*

Ключевые слова: *внеурочная деятельность учащихся, проект, метод проектов, проектная деятельность, учебные ситуации, сетевые сервисы.*

Key words: *extracurricular activities of students, project, project method, project activity, learning situations, network services.*

KIRISH

Hozirgi kunda professional ta'limning muhim vazifalaridan biri o'quvchilarning shaxs sifatida rivojlanishida mustaqil bilim olish, o'z ustida mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish va shaxsiy faoliyatini reflektsiyalash hamda axborotlar bilan maqsadli ishlash ko'nikmalarini shakllantirishdir. Buning uchun, o'quv jarayonida o'quvchilarning professional sifatlariga dahldor bo'lgan loyihaviy, konstruktorlik, kommunikativ va tashkiliy funktsional komponentalarini shakllantirish zarur. Lekin, ayrim ob'ektiv sabablarga ko'ra, jumladan auditoriya mashg'ulotlari doirasida vaqt chegaralanganligini hisobga olganda bunday sifatlarni doim ham shakllantirib bo'lmaydi. Shuning uchun, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatning muhim elementlaridan biri "o'quvchini o'qishga o'rgatish" bo'lib, uni darsdan tashqari va mustaqil faoliyatini samarali tashkil etish zaruriyatiga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-sonli Farmonida professional ta’limni rivojlantirishda ta’lim oluvchilarning darsdan bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish, mustaqil ta’limni samarali tashkil etish va o‘quv mashg‘ulotlarida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish bo‘yicha vazifalar belgilab berilgan. [1].

Hozirgi kunda, sinfdan tashqari ishlar professional ta’lim tizimining ajralmas komponentasi bo‘lib, uni samarali tashkil etish natijasida bo‘lajak mutaxassislarning umummadaniy, umumkasbiy va kasbiy kompetentligini shakllantirish imkoniyatlari yaratiladi. Sinfdan tashqari faoliyat deganda - ta’lim oluvchilarning o‘quv mashg‘ulotlaridan bo‘sh bo‘lgan vaqtlarini maqsadli tashkil etishda kreativligini rivojlantirishga yo‘naltirish, tashabbuskorligi va mobilligini oshirish, kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishini ta’minlash tushuniladi [2].

Sinfdan tashqari ishlarning yaxshi tashkil etilgan shakllari va formalariga quyidagilarni ta’kidlash mumkin: professional va ijodiy tanlovlar, o‘quvchilarning ilmiy-tadqiqot ishlari, ta’lim muassasalarida fanlar bo‘yicha to‘garaklarda, musobaqalarda va fan olimpiadalarida ishtirok etish, turli tadbirlarda qatnashish, uy topshiriqlarini bajarish va h.k.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ta’lim oluvchilarning darsdan tashqari faoliyatini turli yo‘sinlarda A.V. Esin [2], V.O. Kutev [3], I.P. Podlasiy [4], E.V. Savina [5], E.Yu. Rivkinlar [6] tomonidan ko‘rib chiqilgan.

N.E. Gurulevaning fikriga ko‘ra, ta’lim oluvchining darsdan tashqari faoliyati- o‘quv jarayoni doirasida to‘liq amalga oshirishning imkoni bo‘lmagan va har bir o‘quvchining qiziqishlarini va so‘rovlarini to‘liq qondirish uchun katta imkoniyatlarga ega [3].

I.I. Prokopevning tanlangan ma’ruzalarida darsdan tashqari ishlar sinfdan tashqari ishlarning bir qismini ifodalashi va unda o‘quvchilarning individual qiziqishlarini va so‘rovlarini hisobga olish imkoniyatlari ko‘proq ekanligi ta’kidlangan [7].

Pedagog olimlarning ta’kidlashicha, darsdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilarning noformal muloqot muhitda to‘garaklarda, olimpiadalarda, ma’navviy-ma’rifiy tadbirlarda kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Darsdan tashqari o‘quvchilar bilan mashg‘ulotlarni tashkil etish yoki to‘garaklarda ishlash va ular bilan ancha erkin muhitda muloqot qilish ularning rivojlanishida va tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi [5,8,9].

Jahon pedagogik tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ta’lim oluvchilarning darsdan tashqari faoliyatini mazmunli va samarali tashkil etishning yo‘llaridan biri loyiha metodidan foydalanishdir. Garchi loyiha metodi pedagogik amaliyotda yangilik bo‘lmasada, hozirgi kunda ham u o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan [8,9,10].

Maqola maqsadini shakllantirish. Maqolaning maqsadi - kasb-hunar texnikumlarida, kollejlarida va maktablarida o‘quvchilarnning darsdan tashqari faoliyatini mazmunli o‘tkazish, fanlar bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarini oshirishda loyiha metodidan foydalanish imkoniyatlarini ochib berishdir.

Vazifaning qo‘yilishi. Qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun quyidagi masalalarni yechimini topish talab etiladi:

- professional ta’limda o‘quvchilarning darsdan tashqari faoliyatining mazmun-mohiyatini aniqlash;
- o‘quvchilarning individual va guruhda loyiha metodi asosida auditoriyadan tashqari faoliyatini tashkil etish imkoniyatlarini aniqlash;

Tadqiqot jarayonida foydalanilgan metodlar:

1.Tizimli tahlil metodi (loyihani yaratish va undan foydalanish uchun turli xarakterdagi elementlarning o‘zaro hamkorligini hisobga olish).

2.Statistik metodlar (normativli metod, tasodifiy baholash metodi, konstruktiv-tanqidiy metod).

3.So‘rov metodlari (anketa o‘tkazish, intervyu, suhbatlar).

Hozirgi kunda professional ta’lim muassasalarida darsdan tashqari va mustaqil ishlarni o‘rgatuvchi dasturlar, elektron darsliklar va qo‘llanmalar, shuningdek bosmali adabiyotlardan foydalanib tashkil etish bo‘yicha tajribalar yig‘ilgan. Shu bilan birga turli fanlardan o‘quvchilarning darsdan tashqari mustaqil ravishda bajarishlari kerak bo‘lgan vazifalarni loyixa metodidan foydalanib amalga oshirish bo‘yicha metodik ishlanmalar deyarli ishlab chiqilmagan. Professional ta’lim muassasalarida o‘quv – loyihalari biror mavzu doirasida (qisqa muddatli) yoki oraliq nazoratlar mobaynida (o‘rta muddatli), shuningdek semestr mobaynida (uzoq muddatli) individual yoki guruhga

bo‘lingan holda faoliyat olib borishlarini ilmiy asoslangan holda tashkil etish – belgilangan pedagogik maqsadlarga erishishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta’limda loyiha metodi mahsuldor o‘qitish texnologiyalardan biri bo‘lib, professional ta’lim muassasalarida ta’lim jarayoni sifatini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi [8].

Odatda ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning loyihaviy faoliyatini dars paytida yoki darsdan tashqari paytda tashkil etish mumkin. Tadqiqot ishimizning xususiyatidan kelib chiqqan holda, biz o‘quvchilarning fanlar bo‘yicha loyihaviy faoliyatini darsdan tashqari paytda tashkil etish texnologiyasini ko‘rib chiqamiz.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning darsdan tashqari faoliyatini tashkil etish uchun yuqori didaktik potentsialga ega bo‘lgan komponentlardan biri - loyiha metodini qo‘llash bo‘lib hisoblanadi. Garchi, loyiha metodi 100 yildan ko‘proq vaqt oldin paydo bo‘lgan bo‘lsada, unga bo‘lgan qiziqish nafaqat bugungi kunda pasaydi, balki o‘qitishning kompetentli modeliga o‘tish tufayli sezilarli darajada oshib bormoqda.

E.S. Polat loyiha metodiga quyidagicha taklif beradi: “loyiha metodi - muammoni batafsil ishlab chiqish orqali didaktik maqsadlarga erishish usuli bo‘lib, u haqiqiy olingan natija bilan yakunlangan bo‘lishi va tegishli tarzda rasmiylashtirilgan bo‘lishi kerak” [8].

O‘quvchilarning darsdan tashqari faoliyatini loyiha metodi asosida tashkil etish bo‘yicha tajriba ishlari Buxoro viloyati Vobkent kasb-hunar maktabi “Yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi va konstruktsiyasi” fanini o‘qitish misolida o‘tkazildi. O‘quvchilarning loyihaviy faoliyatini tashkil etish va uni kuzatib borishning eksperimental tadqiqotlari o‘quv yili mobaynida olib borildi.

O‘quvchilarning darsdan tashqari faoliyatiga biz kasbiy bilimlarini kengaytirishga va kasbiy ahamiyatga ega fazilatlarini shakllantirishga hissa qo‘shadigan o‘quv jarayonidan tashqaridagi har qanday faoliyatini tushunamiz. Bunday faoliyat turi ta’lim oluvchilarning auditoiyada olingan bilimlarini mustahkamlashga, yangi bilimlarni faol o‘zlashtirishga, qo‘yilgan masalalarni yechimini topishda ijodiy yondoshuvni rivojlantirishga, vaziyatli masalalarni yechishda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirildi.

Loyiha ustida ish bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Loyihani tayyorlashning barcha bosqichlarida o‘qituvchi maslahatchi sifatida ishtirok etdi. Loyihani bajarish jarayonida asosiy e’tibor o‘qitish mazmuniga emas (“nima qilish kerak?”), balki mavjud bilimlarni qo‘llash (“bilish, qanday”) jarayoniga qaratildi. Muhitdagi noaniqlikning mavjudligi, o‘quvchilarni kognitiv faoliyatini faollashtiradi. Bunday vaziyatda o‘quvchining ham roli o‘zgaradi. Ular jarayonning faol ishtirokchisiga aylanadi; ishchi guruhlardagi faoliyati jamoa bo‘lib muammoni yechish ko‘nikmalarini shakllantiradi; o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalari rivojlanadi.

Loyiha ustida ishlar quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

1.Loyiha ustida ishni rejalashtirish (mavzu bo‘yicha bor bo‘lgan bilimlar bilan fikr almashish bosqichi): yuzaga kelgan g‘oyalarni muhokama qilish; takliflarni bildirish va munozarali masalalar yechimini topish yo‘llarini aniqlash.

2. Analitik bosqich: loyiha maqsadi va vazifalarini aniqlashtirish; maxsus adabiyotlar, Internet manbalari yordamida axborotlarni qidirish va yig‘ish; o‘quvchilarning o‘z bilimlari va tajribalaridan foydalanishi; boshqa shaxslar bilan axborot almashish; olingan ma’lumotlarni taqqoslash va muhimlarini tanlash.

3.Umumlashtirish bosqichi (olingan axborotlarni strukturlashtirish bosqichi va egallangan bilim, malaka, ko‘nikmalarni inntegratsiyalash): olingan ma’lumotlarni tizimlashtirish; natijalarni tasdiqlash uchun xulosalarning umumiy mantiqiy sxemalarini qurish (referat, videofilm, prezentatsiya, maket va boshqa ko‘rinishlarda).

4.Olingan natijalarning prezentatsiyasi (o‘quvchilar faoliyatini tahlil qilish bosqichi): olingan ma’lumotlarni va natijaga erishish usullarini tushunish; loyiha natijalarini taqdim etish va muhokama qilish.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim oluvchilar loyihaviy faoliyat jarayonida turli axborot manbaalari bilan mustaqil ishlashni o‘rganadilar, loyiha uchun kerak bo‘ladigan axborotlarni topadilar va ulardan foydalanadilar, o‘zlarining ijodiy qobiliyatlarini namoyon etadilar va kichik guruhlarda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

O‘quv loyihalarini o‘quv-ishlab chiqarish tajribasi sifatida ahamiyatli qirralarini ikki tomonlama ko‘rsatish mumkin. Bir tomondan o‘quv loyihalari o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga

yo‘naltirilgan o‘qitish metodi bo‘lib hisoblanadi. Ikkinchidan –o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarni amaliy qo‘llash vositasi sifatida xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib ta’kidlash joizki, professional ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning darsdan tashqari faoliyatini loyiha metodi asosida tashkil etish- ta’lim oluvchilarda universal bilim, malaka va ko‘nikmalarning yaxlit tizimini shakllantiradi, motivatsiyani oshirishni ta’minlaydi, intellektual rivojlanish darajasini intensiflashga imkon beradi va nazariy bilimlarini amaliyotda mustahkamlash hamda o‘z-o‘zini nazorat qilish imkoniyatlarini yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812 – sonli Farmoni. www.lex.uz

2. Енин А.В. Система воспитания творчески активной личности учащихся во внеклассной деятельности: дис. … д-ра пед. наук: 13.00.01 / Енин Алексей Владимирович. – Воронеж, 2010. – 494 с.

3. Кутьев В.О. Внеурочная деятельность школьников: пособие для классных руководителей / В.О. Кутьев.– М.: Просвещение, 1983. – 223 с.

4. Подласый И.П. Продуктивная педагогика: кн. для учителя / И.П. Подласый. – М.: Нар. образование, 2003. – 496 с.

5. Савина Е.М. Внеурочная познавательная деятельность как фактор развития воспитательной системы образовательного учреждения: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01 / Савина Елена Михайловна. – Ярославль, 2006. – 196 с.

6. Ривкин Е.Ю. Профессиональная деятельность учителя в период перехода на ФГОС основного общего образования. Теория и технологии / Е.Ю. Ривкин. – Волгоград: Учитель, 2014. – 183 с

7. Прокопьев И.И. Педагогика. Избранные лекции: Учеб. пособие. В 3 ч. Ч.3 – Дидактика / И.И. Прокопьев. – Гродно: ГрГУ, 2000. – 138 с.

8. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологий в системе образования. –М.: Академия, 2005. - 272 с.

9. Абрамова Н.С., Гладкова М.Н., Гладков А.В., Кутепов М.М., Трутанова А.В. Организация проектной деятельности студентов в электронном обучении // Международный журнал экспериментального образования. – 2017. – № 6. – С. 7-11.

10. Johnson K., Magusin E. Exploring the digital library. A guide for online teaching and learning// Jossey – Bass, 2005.–162 pp.